

**TYPES OF ADVERBIAL MODIFIERS AND THEIR EXPRESSION IN ARABIC GRAMMAR****Buzakhro M. Begmatova**

Associate Professor, PhD in Law

Department of Arabic Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

buzahro73y@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

Umida A. Rakhimova

Master's Student at the Higher School of Arab Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

uxakimova151@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: adverbial modifier, sentence element, syntax, semantics, Arabic grammar, *الحال*, adverbials (*ظرف الزمان، ظرف المكان*), circumstantial clause (*مفعول لأجله*), semi-sentence (*جملة حالية*), comparative linguistics, functional analysis.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article systematically analyzes the linguistic nature of the adverbial modifier, its semantic and syntactic features, as well as its forms of expression in Arabic grammar. Within the framework of the study, the main types of the adverbial category, their functional load in speech, and the grammatical means of their expression are examined on a scientific basis. In particular, the similarities and differences between the types of adverbial modifiers in the Uzbek language and the corresponding grammatical categories in Arabic (*الحال، ظرف الزمان، ظرف المكان، مفعول لأجله*) and (*وغيرها*) are identified through comparative analysis. In addition, the theoretical interpretation of the adverbial modifier and its role within sentence structure are explained based on classical sources of Arabic linguistics. The results of the research demonstrate the significant role of the adverbial category in clarifying speech, enriching semantic content, and its effective application in language teaching and translation practice.

HOL GAP BO'LAGINING TURLARI VA ARAB GRAMMATIKASIDA IFODALANISHI

Buzahro M. Begmatova

Dotsent, yuridik fanlari nomzodi

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

buzahro73y@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

Raximova A. Umida

Arabshunoslik oliy maktabi magistranti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Email: uxakimova151@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: hol, hol gap bo'lagi, sintaksis, semantika, arab grammatikasi, الحال, zarf (ظرف المكان، ظرف الزمان، ظرف لأجله), jumla holiya (جملة حالية), shibh jumla (شبه جملة), qiyosiy tilshunoslik, funksional tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada hol gap bo'lagining lingvistik mohiyati, uning semantik va sintaktik xususiyatlari hamda arab grammatikasida ifodalanish shakllari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida hol kategoriyasining asosiy turlari, ularning nutqdagi funksional yuklamasi va grammatik ifodalanish vositalari ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, o'zbek tilidagi hol turlari bilan arab tilidagi mos grammatik kategoriyalar (الحال، ظرف المكان، ظرف الزمان، ظرف لأجله boshqalar) o'rtasidagi muvofiqlik va farqli jihatlar qiyosiy tahlil asosida aniqlanadi. Shuningdek, arab tilshunosligining klassik manbalari asosida holning nazariy talqini va uning gap tarkibidagi o'рни izohlanadi. Tadqiqot natijalari hol kategoriyasining nutqni aniqlashtirish, semantik jihatdan boyitish hamda til o'qitish va tarjima amaliyotida samarali qo'llashdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi.

ВИДЫ ОБСТОЯТЕЛЬСТВА И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ В АРАБСКОЙ ГРАММАТИКЕ**Бузахро М. Бегматова**

Доцент, кандидат юридических наук

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

buzahro73y@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

Умида А. Рахимова

Магистрант Высшей школы арабских исследований

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: uxakimova151@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: обстоятельство, синтаксис, семантика, арабская грамматика, ظرف الزمان، ظرف المكان، الحال، مفعول لأجله، جملة حالية، شبه جملة، сравнительное языкознание, функциональный анализ.

Аннотация: В данной статье проводится системный анализ лингвистической сущности обстоятельства (hal), его семантических и синтаксических особенностей, а также способов выражения в арабской грамматике. В ходе исследования рассматриваются основные типы обстоятельств, их функциональная нагрузка в речи и грамматические средства выражения на научной основе. В частности, на основе сравнительного анализа выявляются сходства и различия между типами обстоятельств в узбекском языке и их эквивалентами в арабской грамматике (الحال، ظرف الزمان، ظرف المكان، مفعول لأجله и др.). Кроме того, освещаются теоретические интерпретации категории обстоятельства в классических источниках арабского языкознания и его роль в структуре предложения. Результаты исследования демонстрируют важную роль обстоятельства в уточнении смысла, обогащении семантического содержания, а также его практическую значимость в преподавании языков и переводческой деятельности.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda gapning sintaktik tuzilishini chuqur o'rganish til tizimining funksional imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Gap tarkibidagi har bir bo'lak muayyan semantik va grammatik vazifani bajaradi. Shu nuqtai nazardan, ikkinchi darajali gap bo'laklari orasida hol kategoriyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Hol harakatning bajarilish sharoitini, uning turli semantik jihatlarini ifodalovchi birlik sifatida nutqning aniqligi va izchilligini ta'minlaydi.

Arab tilida hol (الحال) kategoriyasi nahv tizimining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. U fe'l bilan uzviy bog'langan holda harakatning sodir bo'lish jarayonidagi holatini ifodalaydi. Arab grammatik an'analarida ushbu kategoriya chuqur o'rganilgan bo'lib, uning nazariy asoslari klassik tilshunoslar tomonidan mukammal ishlab chiqilgan. Xususan, Sibavayh o'zining mashhur "Al-Kitob" asarida holni sintaktik birlik sifatida izchil tahlil qiladi va uning grammatik xususiyatlarini asoslab beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – hol gap bo'lagining turlarini ilmiy asosda yoritish, uning semantik va sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish hamda arab grammatikasida ifodalanish

shakllarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida sintaktik tahlil, qiyosiy metod va funksional yondashuvdan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asosini o'zbek, rus va arab tilshunosligida hol kategoriyasiga oid mavjud ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tilshunoslikda hol gap bo'lagi sintaktik tizimning muhim komponentlaridan biri sifatida qaralib, uning semantik va funksional xususiyatlari turli ilmiy maktablar doirasida keng tadqiq etilgan.

O'zbek arabshunoslik maktabida hol kategoriyasi arab tilining grammatik tizimi bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Xususan, Sodiqov Q., Mo'minov A. va Rasulov R. kabi olimlarning ilmiy ishlari ushbu yo'nalishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Mazkur tadqiqotlarda holning arab tilidagi grammatik tabiati, uning nahv tizimidagi o'rni, ifodalanish vositalari hamda sintaktik funksiyalari batafsil tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu olimlar tomonidan holning turli semantik turlari, fe'l bilan bog'lanish xususiyatlari va gap tarkibidagi vazifaviy yuklamasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Rus arabshunoslik maktabida arab tili grammatikasi, xususan nahv tizimi doirasida hol kategoriyasi muhim sintaktik birlik sifatida tadqiq etilgan. Bu borada Baranov H.K., Krachkovskiy I.Yu. va Belyayev V.V. kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida arab tilining grammatik qurilishi, sintaktik birliklarning tasnifi hamda ularning semantik xususiyatlari tizimli ravishda yoritilgan. Ayniqsa, arab tilidagi holning ifodalanish vositalari, uning fe'l bilan bog'lanish xususiyatlari hamda nutqdagi funksional yuklamasi ilmiy asosda izohlangan bo'lib, bu yondashuv hol kategoriyasini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Arab tilshunosligida hol (الحال) kategoriyasi nahv ilmining muhim tarkibiy qismi sifatida qadimdan mukammal o'rganilgan. Klassik arab grammatiklaridan Sibavayh, Ibn Hishom va Zamaxshariy asarlarida holning grammatik tabiati, uning ifodalanish vositalari, shuningdek gapdagi sintaktik vazifasi keng yoritilgan. Ushbu manbalar hol kategoriyasining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda yuqorida qayd etilgan ilmiy manbalar asosida qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda funksional metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali hol kategoriyasining sintaktik va semantik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinib, uning arab tilidagi funksional imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va funksional metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod orqali holning grammatik xususiyatlari yoritildi, qiyosiy metod yordamida o'zbek va arab tillaridagi o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlanib, funksional yondashuv asosida uning nutqdagi roli tahlil qilindi.

Natijalar. Hol gapning ikkinchi darajali bo‘lagi sifatida harakatning turli jihatlarini aniqlashtiradi. U asosan fe‘l bilan bog‘lanib, harakatning qanday tarzda, qachon, qayerda yoki qanday sabab asosida sodir bo‘layotganini ko‘rsatadi. Tilshunoslikda holning mohiyati uning semantik rang-barangligida namoyon bo‘ladi. Chunki u bir vaqtning o‘zida bir nechta ma‘no qatlamlarini ifodalash imkoniyatiga ega.

Holning semantik tasnifi uni bir necha turlarga ajratish imkonini beradi. Jumladan, tarz holi harakatning bajarilish usulini bildirsa, payt holi vaqtni, o‘rin holi makonni ifodalaydi. Bundan tashqari, sabab, maqsad, shart hamda daraja-miqdor holi kabi turlar ham mavjud bo‘lib, ular harakatning turli semantik jihatlarini ochib beradi. Bu holat hol kategoriyasining nutqdagi funksional imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatadi.

Arab tilida hol (الحال) kategoriyasi alohida grammatik tizim asosida shakllangan bo‘lib, u qat‘iy qoidalarga bo‘ysunadi. Klassik arab grammatiklaridan Ibn Hishom holni quyidagicha ta‘riflaydi:

”الحال وصف فضلة يذكر لبيان هيئة صاحبه عند وقوع الفعل“ (Ibn Hisham, 1992, p. 234)

ya‘ni, hol — harakat sodir bo‘layotgan paytda subyektning holatini ifodalovchi qo‘shimcha tavsifdir.

Mazkur ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, arab tilida hol nafaqat grammatik, balki semantik jihatdan ham muhim rol o‘ynaydi. U harakat ishtirokchisining holatini aniqlashtirish orqali gap mazmunini boyitadi.

Arab tilshunosligining yana bir yirik vakili Zamaxshariy “Al-Mufassal” asarida holning ahamiyatiga alohida to‘xtalib, uni nutqning aniqligini ta‘minlovchi vosita sifatida baholaydi:

”والحال يبين كيفية وقوع الفعل، وبه يتم المعنى“ (Zamakhshari, 1993, p. 78)

ya‘ni, hol harakatning qanday sodir bo‘layotganini ochib beradi va uning yordamida ma‘no mukammallashadi.

Hol gap bo‘lagi tilshunoslikda harakatning turli semantik jihatlarini ifodalovchi muhim sintaktik birlik hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida hol semantik xususiyatlariga ko‘ra bir necha asosiy turlarga ajratiladi: tarz holi, payt holi, o‘rin holi, sabab holi, maqsad holi, shart holi hamda daraja-miqdor holi. Ushbu tasnif harakatning bajarilish sharoitini turli nuqtai nazardan aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Holat holi harakatning qanday bajarilganini ifodalaydi. O‘zbek tilida bu tur odatda ravishlar yoki ravishdosh shakllar orqali ifodalanadi. Masalan, “U sekin gapirdi”, “Talaba diqqat bilan tingladi” kabi gaplarda harakatning bajarilish usuli aniqlashtiriladi. Arab tilida esa tarz ma‘nosi asosan الحال orqali ifodalanadi. Bu birlik harakatning bajarilish holatini bildiradi va odatda nasb holida keladi.

Masalan:

جَاءَ الرَّجُلُ مُسْرِعًا

(U odam shoshilib keldi)

كَتَبَ الطَّالِبُ الدَّرْسَ مُتَأَنِّيًا

(Talaba darsni sekinlik bilan yozdi)

Mazkur misollarda “مُسْرِعًا” va “مُتَأَنِّيًا” birliklari hol bo‘lib, harakatning qanday bajarilganini ko‘rsatadi. Bu holatda harakatning sifati bevosita ochib beriladi.

Payt holi harakatning qachon sodir bo‘lganini ifodalaydi. O‘zbek tilida u “ertalab”, “kechqurun”, “bugun”, “kecha” kabi birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, “U kechqurun keldi”, “Biz tongda yo‘lga chiqdik”. Arab tilida esa payt ma’nosi ظرف الزمان orqali ifodalanadi.

Masalan:

وَصَلَ الطَّالِبُ صَبَاحًا

(Talaba ertalab yetib keldi)

سَافَرْنَا لَيْلًا

(Biz kechasi safarga chiqdik)

Bu yerda “صَبَاحًا” va “لَيْلًا” birliklari vaqt zarfi bo‘lib, harakatning vaqtini aniqlashtiradi.

O‘rin holi harakatning qayerda amalga oshganini bildiradi. O‘zbek tilida bu tur “uyda”, “maktabda”, “ko‘chada” kabi birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, “U bog‘da sayr qildi”, “Bolalar hovlida o‘ynayapti”. Arab tilida esa o‘rin ma’nosi ظرف المكان yoki predlogli birikmalar orqali ifodalanadi.

Masalan:

جَلَسَ الطَّالِبُ فِي الْفَصْلِ

(Talaba sinfda o‘tirdi)

وَقَفَ الرَّجُلُ أَمَامَ الْبَيْتِ

(Erkak uy oldida turdi)

Bu yerda “فِي الْفَصْلِ” va “أَمَامَ الْبَيْتِ” birikmalari o‘rin holi vazifasini bajaradi.

Sabab holi harakatning yuzaga kelish sababini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida bu “sababli”, “uchun”, “-gani bois” kabi shakllar orqali ifodalanadi. Masalan, “U kasalligi sabab kelmadi”, “U qo‘rqqani uchun to‘xtadi”. Arab tilida esa sabab ma’nosi asosan مفعول لأجله orqali ifodalanadi.

Masalan:

تَوَقَّفَ الطَّالِبُ خَوْفًا

(Talaba qo‘rqqani sabab to‘xtadi)

بَكَى الطِّفْلُ الْمَا

(Bola og‘riq sabab yig‘ladi)

Bu yerda “خَوْفًا” va “الْمَا” sabab ma’nosini bildiruvchi maf’ul li-ajlih hisoblanadi.

Maqsad holi harakatning nima maqsadda bajarilganini ifodalaydi. O‘zbek tilida bu “uchun” yordamchisi orqali ifodalanadi. Masalan, “U bilim olish uchun keldi”, “Biz dam olish uchun bordik”. Arab tilida esa u ko‘pincha مَفْعُولٌ لِأَجْلِهِ orqali ifodalanadi.

Masalan:

جِئْتُ طَلْبًا لِلْعِلْمِ

(Men ilm olish uchun keldim)

ذَهَبْنَا طَلْبًا لِلرَّاحَةِ

(Biz dam olish uchun bordik)

Bu yerda “طَلْبًا” maqsadni bildiradi va harakatning yo‘nalishini ochib beradi.

Shart holi harakatning qanday shart ostida amalga oshishini bildiradi. O‘zbek tilida bu shart ergash gaplar orqali ifodalanadi: “Agar vaqt bo‘lsa, boraman”, “Harakat qilsang, muvaffaqiyatga erishasan”. Arab tilida esa bu ma’no جُمْلَةٌ شَرْطِيَّةٌ orqali ifodalanadi.

Masalan:

إِنْ تَدْرُسْ تَنْجَحْ

(Agar o‘qisang, muvaffaqiyatga erishasan)

إِذَا جَاءَ الْمُعَلِّمُ نَسَكْتُ

(Agar o‘qituvchi kelsa, jim turamiz)

Bu gaplarda shart munosabati harakatning amalga oshish sharoitini belgilaydi.

Daraja-miqdor holi harakatning intensivligi yoki miqdorini bildiradi. O‘zbek tilida bu “juda”, “biroz”, “ko‘p”, “kam” kabi birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, “U juda tez yugurdi”, “Men biroz kutdim”. Arab tilida esa bu ma’no ravish yoki miqdor bildiruvchi birliklar orqali ifodalanadi.

Masalan:

ضَجَّكَ كَثِيرًا

(U juda ko‘p kuldi)

إِنْتَضَرْتُ قَلِيلًا

(Men biroz kutdim)

Bundan tashqari, arab tilida hol murakkab shakllarda ham ifodalanadi. Jumladan, جُمْلَةٌ حَالِيَّةٌ va جُمْلَةٌ شَبَهٌ جُمْلَةٌ konstruktsiyalari keng qo‘llanadi.

Masalan:

دَخَلَ الطَّالِبُ وَهُوَ يَبْتَئِسُ

(Talaba kulib kirib keldi)

خَرَجَ الرَّجُلُ وَهُوَ مُسْتَعْجِلٌ

(Erkak shoshilgan holda chiqdi)

Bu yerda “وهو يبتئس” va “وهو مستعجل” birliklari butun gap shaklida kelib, hol vazifasini bajaradi.

Shuningdek, شبه جملة orqali ifodalanish ham keng tarqalgan:

جَلَسَ فِي صَمْتٍ

(U jimlikda o‘tirdi)

عَمِلَ فِي اللَّيْلِ

(U kechasi ishladi)

O‘zbek va arab tillarida hol kategoriyasi umumiy funksional xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning ifodalanish usullarida muayyan farqlar mavjud. O‘zbek tilida hol ko‘proq sintaktik vositalar orqali ifodalansa, arab tilida u morfologik jihatdan qat’iy shakllar bilan belgilanadi. Bu farqlar ayniqsa tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Holning nutqdagi funksional ahamiyati juda katta bo‘lib, u fikrni aniqlashtirish, harakatning tafsilotlarini ochib berish va nutqning ifodaviyligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ilmiy va badiiy matnlarda holning qo‘llanishi mazmuni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hol gap bo‘lagi tilshunoslikda muhim sintaktik kategoriya sifatida namoyon bo‘lib, u harakatning turli semantik jihatlarini ifodalash orqali nutqning aniqligi va mazmundorligini ta’minlaydi. Arab tilida holning grammatik jihatdan qat’iy qoidalarga asoslangan holda qo‘llanishi uning tizimli va mukammal shakllangan kategoriya ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hol kategoriyasi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Uning qiyosiy tahlili esa o‘zbek va arab tillari o‘rtasidagi grammatik o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa tarjima, til o‘qitish va lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Sodiqov, Q. (2007). Arabic Grammar (Nahw). Arab tili grammatikasi (nahv). – Tashkent: Fan. – 240 p. (in Uzbek)
- 2.Muminov, A. (2012). Arabic Morphology (Sarf). Arab tili sarfi. – Tashkent: O‘qituvchi. – 224 p. (in Uzbek)

3. Rasulov, R. (2015). Syntax of the Arabic Language. Arab tili sintaksisi. – Tashkent: Fan. – 260 p. (in Uzbek)
4. Baranov H.K. (1985) Arabic-Russian Dictionary. Arabsko-russkiy slovar – Moscow: Russian Language Publishing House, 944 p. (in Russian)
5. Krachkovsky I.Yu. (1965) Among Arabic Manuscripts. Nad arabskimi rukopisyami. – Moscow: Nauka. – 304 p. (in Russian)
6. Belyaev E.A. (1960) The Arabic Language. Arabskiy yazik. – Moscow: Publishing House of Oriental Literature, – 272 p. (in Russian)
7. Sibawayh. (1988). The Book. Al-Kitab. – Cairo: Dar al-Kutub al-Ilmiyya. 1600 p. (in Arabic)
8. Ibn Hisham. (1992). The Enricher of the Intelligent on the Books of Grammar. Mughni al-Labib ‘an Kutub al-A‘arib. – Beirut: Dar al-Fikr. – 800 p. (in Arabic)
9. Zamakhshari. (1993). The Detailed Work on the Science of Arabic. Al-Mufassal fi ‘Ilm al-‘Arabiyya. – Beirut: Dar al-Jil. – 320 p. (in Arabic)
10. Ibn Aqil. (2005). Ibn Aqil’s Commentary [on Ibn Malik’s Alfiyya]. Sharh Ibn Aqil. – Cairo: Dar al-Turath. – 1000 p. (in Arabic)